Mazkur ilmiy bo'shliqlardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot Hindiston fond bozorida ro'yxatga olingan kompaniyalarning turli xususiyatlari dividend siyosatining ikki muhim jihati — dividendlarning oshirilishi va kamaytirilishiga — qanday ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda qoldiq, agentlik va signal berish nazariyalarining amaliy qo'llanilishi muhokama qilinadi hamda olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotga muhim hissa qo'shishi kutiladi.

Tadqiqot quyidagi tartibda tashkil etilgan: ikkinchi bo'limda adabiyotlar sharhi, uchinchi bo'limda metodologiya, to'rtinchi bo'limda empirik natijalar, beshinchi bo'limda robustlik testlari, oltinchi bo'limda esa umumiy xulosalar keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud ilmiy adabiyotlarda korxonalarning dividend siyosatiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda dividend siyosatining turli jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotlarning aksariyati dividend to'lovlari darajasini o'rganishga qaratilgan, ayrim tadqiqotlar esa dividend to'lashga bo'lgan moyillikni alohida ta'kidlaydi (Budagaga, 2020; Easterwood et al., 2021; Kowerski & Kazmierska-Jozwiak, 2022).

Dividend siyosatining turli jihatlari baholashda olimlar bir qator ko'rsatkichlardan foydalanganlar. Jumladan, favqulodda holatlardan oldingi foydaga nisbatan dividendlar ulushi (Agarwal & Chakraborty, 2023; Do, 2021), savdoga nisbatan dividendlar (Ankudinov & Lebedev, 2016; Jabbouri, 2016), bir aksiya uchun dividendning bir aksiya uchun foydaga nisbati (Bahreini & Adaoglu, 2018; Budagaga, 2020; Denis & Osobov, 2008), sof foydaga nisbatan dividendlar (Akhtar, 2018; Cheng et al., 2021), jami aktivlarga nisbatan dividendlar (Oh & Park, 2021; Xu et al., 2021; Yousaf et al., 2019), pul foydasiga nisbatan dividendlar (Sharma, 2021) va boshqa ko'rsatkichlar keng qo'llanilgan.

Rivojlangan mamlakatlar bo'yicha empirik tadqiqotlar mavjud adabiyotlarda yetarli darajada uchraydi. Perretti et al. (2013) AQSh sharoitida korxona hajmi, kapital tuzilmasi va o'sish imkoniyatlari dividend to'lash ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Almeida et al. (2015) Portugaliya misolida bozor qiymati, bir aksiya uchun sof foyda, rentabellik, korxona hajmi va moliyaviy mustaqillik dividend to'lovlari ulushiga ijobiy ta'sir etishini qayd etgan. Shu bilan birga, oldingi yil dividendlarining hajmi, operatsion daromad va biznes ko'lamini ushbu ko'rsatkichga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Adhikari va Agrawal (2018) AQSh kompaniyalarida tengdosh korxonalar ta'siri dividend to'lovlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa mahsulot bozorida raqobat yuqori bo'lgan sharoitlarda bu ta'sir kuchliroq ekanini ta'kidlaydi. Grennan (2019) ham tengdoshlar ta'siri dividend to'lovlarini oshirishga olib kelishini, biroq aksiyalarni qayta sotib olishga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini aniqlagan.

Yevropa kompaniyalari misolida Barros et al. (2020) soliqlar, rentabellik, korxona hajmi va erkin muomaladagi aksiyalar ulushining mavjudligi dividend to'lovlarini oshirishini, tahlilchilar qamrovi esa yuqori dividend to'lovlarini cheklashini ko'rsatgan. Krieger et al. (2021) AQShda sof foyda va qarz hajmi dividendlarni kamaytirishning



muhim omillari ekanini aniqlagan bo'lib, ushbu bog'liqlik COVID-19 pandemiyasi davrida yanada kuchaygan. Xu et al. (2021) London fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar bo'yicha aylanma kapital va dividend to'lash o'rtasida teskari U-shaklli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan. Oh va Park (2021) Koreyada korporativ barqaror boshqaruv bilan dividend to'lovlari ulushi o'rtasida ijobiy bog'liqlikni aniqlagan.

Duong et al. (2021) ehtiyotkor menejerlar mavjud bo'lgan sharoitda AQSh kompaniyalari foydani dividend sifatida taqsimlashdan ko'ra uni ushlab qolishga moyil ekanini qayd etgan. Kowerski va Kazmierska-Jozwiak (2022) Polsha kompaniyalarida dividend to'lashga moyillik va aksiyalarni qayta sotib olish ehtimoli o'rtasida teskari U-shaklli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlagan. Cave va Lancheros (2024) AQSh kompaniyalarida dividend qarorlariga mahalliy tengdoshlar sezilarli ta'sir ko'rsatishini, bu ta'sir chakana investorlar, institutsional investorlar va agentlik xarajatlari yuqori bo'lgan sharoitlarda kuchliroq ekanini aniqlagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida ham shunga o'xshash tadqiqotlar mavjud. Baker va Kapoor (2015) Hindistonda foydaning barqarorligi, avvalgi dividendlar tendensiyasi, joriy va kutilayotgan daromadlar darajasi dividend to'lovlari oshirishga olib kelishini ta'kidlagan. Ankudinov va Lebedev (2016) Rossiya kompaniyalari misolida rentabellik va korxona hajmi dividend to'lovlari rag'batlantirishi, o'sish imkoniyatlari va qarz yuklamasi esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Elyasiani et al. (2019) Eron sharoitida yuqori rentabellik, biznes tavakkalchiligi, samarali soliq stavkasi va past qarz yuklamasi dividend to'lash ehtimolini oshirishini ko'rsatgan. Sharma (2021) Hindistonda likvidlik, qarz darajasi, korxona hajmi va o'sish ko'rsatkichlari dividendlarning oshishiga to'sqinlik qilishini, korxona tavakkalchiligi va kechiktirilgan dividendlar esa dividend hajmini oshirishini aniqlagan. Cheng et al. (2021) Xitoy kompaniyalarida yuqori qarz darajasi dividend to'lovlari bo'lgan majburiyatni kamaytirishini qayd etgan.

Ghose et al. (2022) Hindistonda korxona hajmi, rentabellik, bozor qiymatining balans qiymatiga nisbati, kapital xarajatlari, naqd pul zaxiralari, mulkchilik konsentratsiyasi va guruhga mansublik dividend to'lash ehtimolini oshirishini, erkin pul oqimi, foyda volatilligi, qarz va likvidlik yetishmasligi esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Ko'p mamlakatlarni qamrab olgan tadqiqotlar ham mavjud. Denis va Osobov (2008) dividend to'lash ehtimoli rentabellik, korxona hajmi va kapital tuzilmasiga ijobiy bog'liqligini ko'rsatgan. Chay va Suh (2009) dastlabki o'sish bosqichidagi, pul oqimi tebranishlari yuqori bo'lgan kompaniyalar kamroq dividend to'lashini aniqlagan. Bahreini va Adaoglu (2018) korxona, tarmoq va mamlakat darajasidagi omillarning dividend siyosatiga ta'sirini o'rganib, korxona darajasida rentabellik, hajm va o'sish imkoniyatlari ijobiy, tarmoq darajasida esa kapital intensivligi va qarz salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Mamlakat darajasida samarali dividend solig'i ayrim tarmoqlarda dividend to'lovlari teskari ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Barros et al. (2020) yirik kompaniyalar yuqori dividend to'lash ehtimoliga ega ekanini ko'rsatgan. Budagaga (2020) MENA mamlakatlari bo'yicha korxona hajmi, rentabellik, kapital yetarliligi va yoshining dividend qarorlariga ijobiy, kredit tavakkalchiligining esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

De Souza Junior et al. (2024) G20 doirasidagi 11 ta rivojlanayotgan mamlakat misolida soliqlar, hajm va qarz dividend to'lovlari ijobiy, erkin pul oqimi va foyda esa salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Agarwal va Chakraverty (2023) yuqori o'sish imkoniyatlari dividend to'lash ehtimolini kamaytirishini, IFRS standartlarini majburiy joriy etish ushbu salbiy bog'liqlikni kuchaytirishini aniqlagan.

AlGhazali va Yilmaz (2023) 29 ta rivojlanayotgan mamlakat bo'yicha rentabellik dividend qarorlarida eng muhim omil ekanini ko'rsatgan. COVID-19 pandemiyasi davrida esa ko'plab kompaniyalarda dividend miqdorining oshishi yoki kamayishi kuzatilgan. Dsouza et al. (2025) S&P 500 indeksiga kiritilgan kompaniyalar bo'yicha korxona hajmi, rentabellik va oldingi yil dividendlari joriy yil dividendlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Yuqoridagi tahlil turli mamlakatlar va sharoitlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bir-biridan farq qilishini ko'rsatadi. Tadqiqotlarning aksariyati dividend to'lovlari darajasi va dividend to'lash ehtimoliga qaratilgan bo'lib, dividendlarning oshirilishi va kamaytirilishi kabi jihatlar yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, turli korxona xususiyatlarining dividend siyosatiga ta'siri bo'yicha yagona va aniq xulosalar mavjud emas.

Shu sababli, Hindiston sharoitida dividend siyosatining yangi jihatlar va korxona xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, mavjud adabiyotlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlarga qaratilganini inobatga olgan holda, tez sur'atlarda rivojlanayotgan Hindiston iqtisodiyoti misolida olib borilgan ushbu tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dividend siyosati bo'yicha muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutiladi.

Dividend siyosatiga oid mavjud ilmiy adabiyotlarda tadqiqotchilar turli nazariy yondashuvlarga murojaat qilganlar. Ushbu nazariy qarashlar korxonalarining dividend to'lovlari bo'yicha qarorlarini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. 1-jadvalda empirik tadqiqotlarda keng qo'llanilgan dividend siyosatiga oid asosiy nazariyalar umumlashtirib keltirilgan.



1-jadval. Dividend siyosatiga oid asosiy nazariy yondashuvlar

Nazariya nomi	Nazariy asos (mazmuni)	Manbalar
Dividendlarning ahamiyatsizligi gipotezasi	Mukammal raqobat mavjud bo'lgan va korporativ soliqlar yo'q sharoitda korxonaning dividend siyosati uning bozor qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Mazkur nazariya real bozor sharoitlariga mos kelmaydigan farazlarga asoslanadi.	(Miller & Modigliani, 1961)
Hayotiy sikl nazariyasi	Korxonalar dastlabki o'sish bosqichlarida kapital bozoriga cheklangan kirish, ichki resurslarning yetishmasligi va bozor mavqeining zaifligi sababli dividendlarni kam to'laydi. Yetuklik bosqichiga yetgach esa ushbu cheklovlarni yengib o'tadi va aksiyadorlarga yuqori daromadlar taqdim etadi.	(DeAngelo et al., 2006; Fama & French, 2001; Mueller, 1972)
Agentlik nazariyasi	Dividendlar I-tur agentlik muammolarini (asosiy shaxs va agent o'rtasida) hamda II-tur agentlik muammolarini (ozchilik va ko'pchilik aksiyadorlar o'rtasida) kamaytirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Shu bois agentlik muammolari kuchli bo'lgan korxonalar yuqoriroq dividend to'lashga intiladi.	(Ding et al., 2021; Jensen, 1986; Jensen & Meckling, 1976; Rozeff, 1982)
Signal berish (signalling) nazariyasi	Korxona tomonidan barqaror va yuqori dividendlar to'lanishi bozorga ijobiy moliyaviy signal uzatadi. Aksincha, dividendlarning kamaytirilishi yoki to'xtatilishi korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganidan dalolat beruvchi salbiy signal sifatida qabul qilinadi.	(Bhattacharya, 1979, 1980; John & Williams, 1985; Miller & Rock, 1985)
Tranzaksiya xarajatlari nazariyasi	Tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb etishda korxonalar qo'shimcha xarajatlarga duch keladi. Shu sababli, kapital bozoriga kirish imkoniyati cheklangan va tranzaksiya xarajatlari yuqori bo'lgan korxonalar dividend to'lovlarini kamaytirishi mumkin.	(Al-Najjar & Hussainey, 2009; Budagaga, 2020; Holder et al., 1998)
Qoldiq (residual) nazariyasi	Korxonalar avvalo qisqa va uzoq muddatli investitsiya ehtiyojlari hamda majburiyatlarini qondirishni ustuvor deb biladi. Faqatgina ushbu ehtiyojlar qondirilgandan so'ng qolgan mablag'lar dividend sifatida aksiyadorlarga taqsimlanadi. Shunga ko'ra, yuqori daromad va katta qoldiq mablag'larga ega korxonalar yuqoriroq dividend to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi.	(Almeida et al., 2015; Budagaga, 2020)

Ushbu tadqiqot dividend siyosatining ikki muhim jihati bo'yicha empirik dalillarni taqdim etadi: dividendlarning oshirilishi (Div_Inc) va dividendlarning kamaytirilishi (Div_Dec). Tushuntiruvchi o'zgaruvchilar sifatida korxonaning to'qqizta asosiy xususiyati ko'rib chiqiladi: korxona hajmi (FSIZE), rentabellik (PROF), daromadlar tebranishi (EVOL), o'sish imkoniyatlari (GROW), moliyaviy leveraj (LEV), erkin pul oqimi (FCF), naqd mablag'lar zaxirasi (CSH), asosiy (promouter) aksiyadorlar ulushi (PMH) hamda korxonaning hayotiy sikli (LFC).

Yirik korxonalar, odatda, yetuk bosqichda bo'ladi, ularda naqd mablag'lar zaxirasi ko'proq va o'sish imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo'ladi. Shuningdek, ular tashqi kapital bozoriga kirish imkoniyatiga ega bo'lib, tranzaksiya xarajatlari pastroq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, hayotiy sikl nazariyasi va tranzaksiya xarajatlari nazariyasi yirik korxonalar moliyalashtirish ehtiyojlariga mos ravishda dividend to'lovlarini o'zgartirishda yuqoriroq moslashuvchanlikka ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi gipotezalar ilgari suriladi:

H1a: Korxona hajmi dividendlarni oshirish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Div_Inc).

H1b: Korxona hajmi dividendlarni kamaytirish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Div_Dec).

Rentabellikning oshishi korxonaning likvidlik holatini yaxshilaydi va dividend to'lovlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Bundan tashqari, signal berish nazariyasiga muvofiq, yuqori rentabellikka ega korxonalar dividend to'lovlarini kamaytirish orqali manfaatdor tomonlarga salbiy signal yuborishga kamroq moyil bo'ladi. Korxona hajmi singari, rentabellik ham kapital bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi va tranzaksiya xarajatlarni kamaytiradi, natijada korxonaning moliyaviy moslashuvchanligi oshadi. Ushbu asoslardan kelib chiqib, quyidagi gipotezalar shakllantiriladi:

H2a: Rentabellik dividendlarni oshirish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Div_Inc).

H2b: Rentabellik dividendlarni kamaytirish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Div_Dec).

Foydaning yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi korxonalarning dividend to'lovlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Ghose et al., 2022). Korxonalar dividendlarning tez-tez oshirilishi yoki kamaytirilishidan tiyilishga harakat qiladi,



chunki bu tashqi manfaatdor tomonlarga salbiy signal yuborilishiga olib kelishi mumkin. Foydasi o'zgaruvchan bo'lgan korxonalar odatda yosh, kichik hajmli va o'sishning dastlabki bosqichida bo'ladi. Shu sababli signal berish nazariyasi, hayotiy sikl nazariyasi va tranzaksiya xarajatlari nazariyalariga asoslanib, quyidagi gipotezalar shakllantiriladi:

H3a: Foydaning o'zgaruvchanligi dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

H3b: Foydaning o'zgaruvchanligi dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'sish imkoniyatlari korxonalarning dividend to'lovlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq mablag' talab qiladi. Bu holat dividend siyosatining qoldiq nazariyasi bilan ham mos keladi. Biroq signal berish nazariyasi bunga teskari yondashuvni taklif etadi, ya'ni yuqori dividendlar yuqori o'sish imkoniyatlari bilan bog'lanishi mumkin, chunki korxonalar kelajakdagi o'sish istiqbollarini namoyish etishga intiladi. Shunga qaramay, avvalgi tadqiqotlarning aksariyatida o'sish va dividend to'lovlari o'rtasida salbiy bog'liqlik aniqlangan. Shu bois quyidagi gipotezalar ilgari suriladi:

H4a: O'sish dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

H4b: O'sish dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agentlik nazariyasi tarafdorlariga ko'ra, moliyaviy leveraj agentlik muammolarini kamaytirishda samarali vositadir (Jensen, 1986; Jensen & Meckling, 1976). Majburiy foiz to'lovlari menejerlar ixtiyoridagi erkin pul oqimini qisqartiradi. Shu sababli leveraj dividendlarning o'rnini bosuvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, qarz shartnomalaridagi cheklovlar korxonalarning dividend siyosatidagi moslashuvchanligini kamaytiradi. Signal berish nazariyasiga ko'ra esa leverajning oshishi dividendlarning tez-tez o'zgarishini cheklaydi, chunki bu kreditorlarga salbiy signal yuboradi. Shunga asoslanib, quyidagi gipotezalar ilgari suriladi:

H5a: Leveraj dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

H5b: Leveraj dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Erkin pul oqimi korxonaning likvidlik holati bilan ijobiy bog'liq. Erkin pul oqimi yuqori bo'lgan korxonalar dividend to'lashga ko'proq qodir bo'ladi. Agentlik nazariyasiga ko'ra ham, erkin pul oqimi yuqori bo'lgan korxonalar agentlik xarajatlarini kamaytirish maqsadida ko'proq dividend to'lashi lozim. Signal berish nazariyasi ham shunga o'xshash xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Shu asosda quyidagi gipotezalar ishlab chiqiladi:

H6a: Erkin pul oqimi dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H6b: Erkin pul oqimi dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Naqd pul zaxiralarining ko'pligi yuqori likvidlikni anglatadi va dividend to'lovlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agentlik va signal berish nazariyalari ham ushbu munosabatni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, katta naqd pul zaxiralarga ega korxonalar odatda yirik va yetuk bo'ladi. Hayotiy sikl va tranzaksiya xarajatlari nazariyalari ham naqd pul zaxiralari va dividendlar o'rtasida ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Shu bois quyidagi gipotezalar shakllantiriladi:

H7a: Naqd pul zaxiralari dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H7b: Naqd pul zaxiralari dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Promouterlar ulushi agentlik nizolariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Promouterlar ulushining ortishi nazorat kuchining oz sonli shaxslar qo'lida jamlanishiga olib keladi va bu ozchilik aksiyadorlar manfaatlarining buzilishiga sharoit yaratishi mumkin. Dividend to'lovlari nafaqat egasi-menejer o'rtasidagi, balki ko'pchilik va ozchilik aksiyadorlar o'rtasidagi agentlik nizolarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mulkchilikning yuqori konsentratsiyasi promouterlarga dividend siyosatini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beradi. Ushbu nazariy dalillar quyidagi gipotezalarni keltirib chiqaradi:

H8a: Promouterlar ulushi dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H8b: Promouterlar ulushi dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hayotiy sikl nazariyasiga ko'ra, korxonalar dastlabki bosqichlarda o'sish ehtiyojlari sababli past dividend to'laydi. Aksincha, yetuk bosqichdagi, barqaror pul oqimlariga ega korxonalar yuqori dividendlar to'lashga moyil bo'ladi. Yetuk korxonalar odatda yirik bo'lib, tashqi kapital bozoriga kirish imkoniyati keng bo'ladi. Denis va Osobov (2008) ta'kidlaganidek, korxona hayotiy sikli davomida taqsimlanmagan foydaning ustav kapitaliga nisbati ortib boradi. Ushbu tadqiqotda hayotiy sikl aynan shu ko'rsatkich orqali o'lchanadi. Yuqoridagi dalillarga asoslanib, quyidagi gipotezalar ilgari suriladi:

H9a: Hayotiy sikl dividendlarni oshirish ehtimoliga (Div_Inc) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H9b: Hayotiy sikl dividendlarni kamaytirish ehtimoliga (Div_Dec) ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur empirik tadqiqot 2001–2002 moliyaviy yilidan 2021–2025 moliyaviy yiliga qadar bo'lgan davrda fond bozorida ro'yxatga olingan 3 739 ta kompaniyani qamrab oladi. Umuman olganda, kamida ketma-ket uch yil ma'lumotlarga ega bo'lgan 53 112 ta "firma-yil" kuzatuvlaridan iborat nomutanosib (unbalanced) panel ma'lumotlar to'plami shakllantirildi.



Shuningdek, yakuniy tanlamadan moliyaviy hamda kommunal xizmat ko'rsatuvchi korxonalar chiqarib tashlandi, chunki ular o'ziga xos faoliyat xususiyatlari va tartibga solish mexanizmlari jihatidan boshqa korxonalardan tubdan farq qiladi (Miah va boshq., 2021). Bundan tashqari, ayrim ko'rsatkichlarni normallashtirishda maxraj sifatida umumiy aktivlar qo'llanilganligi sababli, umumiy aktivlari manfiy yoki nol qiymatga ega bo'lgan firmalar ham tanlamadan chiqarildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar CMIE Prowess ma'lumotlar bazasidan olindi.

Ushbu tadqiqotda firmalarning dividend to'lovlarini oshirish va kamaytirishga oid qarorlariga turli firma xususiyatlarining ta'sirini tahlil qilish maqsadida logistik regressiya tahlili Model (1) asosida qo'llanildi. Modelda DV — bog'liq o'zgaruvchi, α — doimiy had, β — tushuntiruvchi o'zgaruvchilar koeffitsienti, X esa firma xususiyatlari vektorini ifodalaydi. Ushbu model logistik regressiyaning umumiy (generik) shaklini aks ettiradi.

Vaqtga xos ta'sirlarni nazorat qilish maqsadida empirik modelga vaqt bo'yicha soxta ("dummy") o'zgaruvchilar ham kiritildi (Budagaga, 2020).

2-jadval tadqiqotda ko'rib chiqilgan barcha o'zgaruvchilarning batafsil tavsifi beradi. Bog'liq o'zgaruvchilar (Div_Inc va Div_Dec) 0 va 1 qiymatlarni qabul qiluvchi soxta ("dummy") o'zgaruvchilar hisoblanadi. Tadqiqotda tushuntiruvchi o'zgaruvchilar sifatida korxonalarning to'qqizta muhim xususiyati tanlab olindi (Chakravarthy va boshq., 2023; DeAngelo va boshq., 2006; Jensen, 1986; Nyere & Wesson, 2019).

2-jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan o'zgaruvchilar tavsifi

O'zgaruvchilar	Qisqartma	O'lchash usuli
Bog'liq o'zgaruvchilar:		
Dividend to'lovining oshishi	Div_Inc	Agar joriy yil dividend to'lov koeffitsienti o'tgan yilnikidan yuqori bo'lsa — 1, aks holda — 0
Dividend to'lovining kamayishi	Div_Dec	Agar joriy yil dividend to'lov koeffitsienti o'tgan yilnikidan past bo'lsa — 1, aks holda — 0
Mustaqil o'zgaruvchilar:		
Kompaniya hajmi	FSIZE	Jami aktivlarning natural logarifmi
Rentabellik	PROF	EBIT / jami aktivlar
Daromadlar o'zgaruvchanligi	EVOL	Oxirgi 3 yillik rentabellik ko'rsatkichining siljувchi standart og'ishi
O'sish imkoniyatlari	GROW	Aktivlarning bozor qiymati / aktivlarning balans qiymati
Moliyaviy leveraj	LEV	Jami qarz / jami aktivlar
Erkin pul oqimi	FCF	Erkin pul oqimi / jami aktivlar
Naqd pul zaxiralari	CSH	Naqd pul va naqd pul ekvivalentlari / jami aktivlar
Promouterlar ulushi	PMH	Promouterlarga tegishli aksiyalar ulushi
Hayotiy sikl	LFC	Taqsimlanmagan foyda / oddiy kapital

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot 2001–2025-yillar oralig'ida Hindiston fond bozorida ro'yxatga olingan 3 739 ta kompaniya bo'yicha shakllantirilgan panel ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu davr Hindiston kapital bozorining jadal rivojlanishi hamda dividend siyosatiga bo'lgan ilmiy va amaliy qiziqishning ortishi bilan tavsiflanadi.

Tavsifiy statistika natijalari kompaniyalar o'rtasida dividend to'lovlari va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Yirik va yuqori rentabellikka ega kompaniyalar, asosan, barqaror dividend siyosatini yuritgan bo'lsa, kichik hamda moliyaviy cheklovlariga duch kelgan korxonalarda dividendlarning kamaytirilishi yoki umuman to'lanmasligi holatlari ko'proq kuzatildi. Bu esa dividend siyosatining korxona xususiyatlariga bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Dividendlarning oshirilishi va kamaytirilishini alohida tahlil qilish dividend siyosatining dinamik jihatlarini ochib beradi. Dastlabki natijalar dividendlarni oshiruvchi kompaniyalar nisbatan barqaror moliyaviy holatga ega ekanligini, dividendlarni kamaytiruvchi korxonalarda esa daromadlar o'zgaruvchanligi va moliyaviy cheklovlar kuchliroq ekanligini ko'rsatdi.

Dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida tasodifiy effektli logistik regressiya modeli qo'llanildi. Modelda dividendlarning oshirilishi va kamaytirilishi bog'liq o'zgaruvchi sifatida, korxona xususiyatlari esa mustaqil o'zgaruvchilar sifatida kiritildi.

Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, korxona hajmi dividendlarni oshirish ehtimoliga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Yirik kompaniyalar moliyaviy barqarorligi hamda kapital bozorlariga keng kirish imkoniyatlari tufayli dividend siyosatini faolroq yuritadi. Rentabellik ko'rsatkichi ham dividendlarning oshirilishi



bilan ijobiy bog'liq bo'lib, bu dividendlarning bozorga ijobiy moliyaviy signal uzatuvchi mexanizm sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, promouterlar ulushi hamda pul mablag'lari hajmi dividendlarni oshirish ehtimolini kuchaytiradi. Bu holat dividend siyosatini tushuntirishda qoldiq (residual) nazariyasi amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Hayotiy sikl omili tahlili shuni ko'rsatdiki, yetuk bosqichdagi kompaniyalar dividendlarni oshirishga moyil bo'lsa, rivojlanish bosqichidagi korxonalar reinvestitsiyani afzal ko'radi.

Aksincha, daromadlar o'zgaruvchanligi dividendlarning kamaytirilishi bilan bog'liq bo'lib, yuqori riskli kompaniyalarda ehtiyotkor dividend siyosati yuritilishini bildiradi. Moliyaviy leveraj dividend siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yuqori qarz yuki dividend to'lovlarini cheklashini anglatadi. Erkin pul oqimi ko'rsatkichining dividendlarning kamaytirilishi bilan bog'liqligi esa agentlik nazariyasi doirasida izohlanadi.

Olingan natijalar dividend siyosatini izohlashda qoldiq, signal berish va agentlik nazariyalari muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan qisman mos keladi, biroq ayrim farqlar dividend siyosatining institutsional va bozor sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatadi. Muqobil model spetsifikatsiyalari hamda o'zgaruvchilarning alternativ o'lchovlari asosida o'tkazilgan robustlik testlari asosiy natijalarning barqarorligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot korxona xususiyatlarining dividend to'lov siyosatiga ta'sirini empirik asosda tahlil qilib, dividendlarning oshirilishi va kamaytirilishini izohlovchi muhim omillarni aniqladi. Olingan natijalar dividend siyosati kompaniyaning moliyaviy holati, likvidligi, rentabelligi hamda mulkchilik tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xususan, korxona hajmi, rentabellik darajasi, promouterlar ulushi, pul mablag'lari hajmi hamda kompaniya hayotiy sikli dividend siyosatining moslashuvchanligini oshirsa, daromadlarning o'zgaruvchanligi, moliyaviy leveraj va erkin pul oqimi dividend qarorlarini qabul qilishda cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu natijalar signal berish hamda agentlik nazariyalari bilan mos keladi va dividend siyosatining kompaniyaga xos xususiyatlarga bog'liqligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib, bir qator amaliy takliflar ilgari suriladi. Avvalo, korxona menejerlari dividend siyosatini ishlab chiqishda nafaqat foyda miqdorini, balki likvidlik darajasi, daromadlar barqarorligi hamda mulkchilik tuzilmasini ham kompleks ravishda hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, investorlar dividend to'lovlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va hayotiy sikl bosqichiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Uchinchidan, moliya bozorini tartibga soluvchi organlar dividend siyosati bo'yicha oshkoralikni kuchaytirish hamda axborot sifati talablarini takomillashtirish orqali bozor ishonchlilikini oshirishlari mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot rivojlanayotgan bozorlar sharoitida dividend siyosatini shakllantirish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim empirik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lintner, J. (1956). Distribution of incomes of corporations among dividends, retained earnings, and taxes. *The American Economic Review*, 46(2), 97–113.
2. Miller, M. H., & Modigliani, F. (1961). Dividend policy, growth, and the valuation of shares. *The Journal of Business*, 34(4), 411–433. <https://doi.org/10.1086/294442>
3. Jensen, M. C. (1986). Agency costs of free cash flow, corporate finance, and takeovers. *The American Economic Review*, 76(2), 323–329.
4. Ross, S. A. (1977). The determination of financial structure: The incentive-signalling approach. *The Bell Journal of Economics*, 8(1), 23–40.
5. Baker, H. K., & Smith, D. M. (2006). *Dividend policy: Theory and evidence*. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
6. Fama, E. F., & French, K. R. (2001). Disappearing dividends: Changing firm characteristics or lower propensity to pay? *Journal of Financial Economics*, 60(1), 3–43.
7. DeAngelo, H., DeAngelo, L., & Stulz, R. M. (2006). Dividend policy and the earned/contributed capital mix: A test of the life-cycle theory. *Journal of Financial Economics*, 81(2), 227–254.
8. Allen, F., & Michaely, R. (2003). Payout policy. In *Handbook of the Economics of Finance* (Vol. 1, pp. 337–429). Amsterdam: Elsevier.
9. Denis, D. J., & Osobov, I. (2008). Why do firms pay dividends? International evidence on the determinants of dividend policy. *Journal of Financial Economics*, 89(1), 62–82.
10. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. (2000). Agency problems and dividend policies around the world. *The Journal of Finance*, 55(1), 1–33.
11. Brockman, P., & Unlu, E. (2009). Dividend policy, creditor rights, and the agency costs of debt. *Journal of Financial Economics*, 92(2), 276–299.
12. Reddy, Y. V., & Rath, S. (2005). Disappearing dividends in emerging markets? Evidence from India. *Emerging Markets Finance and Trade*, 41(6), 58–82.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>